



O'SMIR YOSHDAGI QIZLAR UCHUN YANGI TURDAGI SPORT KIIYIMLARINI ISHLAB CHIQISH

Boymatova Kamola Abduraxmon qizi¹

Abdukarimova Mahliyo Maxamadamin qizi²

Boxodirova Moxinur Jaxongir qizi³

¹ Assistent. Namangan muhandislik-texnologiya

² 2- kurs talabasi. Namangan muhandislik-texnologiya

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6603314>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 31- may 2022

KALIT SO'ZLAR

moda, marketing tadqiqoti, uslub, uslublash, brend, trkotaj, sidirg'a

ANNOTATSIYA

Yangi va zamonaviy uslubdagi ayollar sport kiyimlari to'plami dizaynini yaratishda to'plamni kontseptsiyasini ishlab chiqish; sport kiyimlari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi o'rganish; marketing tadqiqotini o'tkazish; liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish; ijodiy manbani asoslash va uslublash; liboslarni kompozitsion yechimi va ranglar uyg'unligini tanlash, taklif modellarni yaratish va ishlab chiqarishga tadbqiq qilish

Avvalo, taklif etilayotgan modellar bir necha talablarga javob berishi kerak. Ular quyidagicha: eng so'nggi urfdagi bichimda, sport kiyimi bo'lganligi uchun qulay va zamonga mos ranglarda bo'lishi kerak. Ranglar aynan sport kiyimi uchun ya'ni uning zamonaviyligini ochib berish uchun xizmat qiladi. To'plamni yaratishda mahalliy va xorijiy yetakchi dizaynerlarning 2020-2021 yillar uchun yaratilgan liboslar assortimenti o'rganildi. Dizaynerlarning ishlarini kuzatganimizda ular o'z liboslar to'plamlarida keng va nimyopishgan siluettlardan keng va samarali goydalanganlar. Dunyoga mashxur sport 1-Jadval.

kiyimi ishlab chiqaruvchi bir qator brend firmalar "Adidas", "Nike", "Puma" mahsulotlarini kuzatganimizda, zamonaviy siluettlardan va harakat erkinligini ta'minlaydigan bichimlardan foydalanilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Bu mahsulotlarda asosan zamonaviy uslub va siluet namoyon bo'ladi. Qulaylik esa uning ommaboplashishiga har taraflama yordam beradi.

Dunyoda sport uslubi bilan muntazam ish olib boruvchi brendlar juda ko'pdir. Tadqiqot davomida bu brendlarni o'rganib chiqildi va 1-jadvalda tahlil qilinga

1			Nike
---	---	--	------

2		Puma
3		Adidas
4		Gucci
5		Calvin Klein

Tadqiqot ishim davomida dunyoga mashhur brendlar va o'zimizning bozor muhitidan kelib chiqqan holda narxlarni o'rganib chiqdim, o'rta qiymatdagi narhlarni tadqiqot ishimda oldim. Adidas 15 000 000 so'm dan boshlanib narxlar ko'tarila boshlaydi, Gucci 20 000 000 so'm dan boshlanish narxlari, Calvin Klein 13 000 000 so'mdan boshlanadi, Koreada ishlab chiqarilganlari 350 000so'mdan boshlanadi, Turkiyada ishlab chiqarilganlari 400 000 so'mdan boshlanadi, Xitoyda ishlab chiqarilganlari 240 000so'mdan

boshlanadi, Qirg'izistonda ishlab chiqarilganlari 190 000 so'mdan boshlanadi, O'zbekistonda ishlab chiqarilganlari 150 000so'mdan boshlanadi. Narhlarni o'rganib chiqqan holda sifatli va arzonroq sport uslubidagi kiyim ishlab chiqarish uchun materyallar hususiyatlarini aniqladim. O'smir yoshdagi qizlar uchun sport kiyimlari eskiz loyhasini ishlashda yangi turdagi sport kiyimi eskizini ishlab chiqdim. Yangi turdagi sport kiyimini online so'rovnomalar asosida eng qulay ,chiroyli va sifatli spotr kiyimini tanlab oldim.

So'rovnomat natijalariga ko'ra taklif qilingan liboslarga o'zgartirishlar kiritildi.



1-rasm. So'rovnomadan avval ishlangan eskiz.


O'smir yoshdagi sport kiyimini ishlab chiqishda birinchi navbata matosiga ko'proq ahamiyat berishimiz kerak bo'ladi. Bitta ipni yoki ip turkumidagi iplarni maxsus ignalar (ilmoqlar yordamida halqa tarziga keltirib, ularning o'zaro urilishi natijasida hosil bo'lgan matolar trikotaj deb ataladi. Trikotajni to'qish oldidan iplar bir necha tayyorlov jarayonlaridan o'tkaziladi (2 - rasm).

1. Qayta o'rash - iplarning uzunligini kattalashtirish va ularning sifatini nazorat qilish uchun o'tqaziladi.
2. Emulsiyalash - iplarning

mayinligi va egiluvchanligini oshirish, hamda elektrlanish xususiyatini kamaytirish uchun o'tqaziladi.

3. Paxta va jun tolasidan olingan iplar sirtining silliqqligini oshirish uchun ularga parafin bilan ishlov beriladi.

4. Ishlatiladigan iplarning namligi belgilangan me'yorlardan kam bo'lsa, ular qo'shimcha namlanadi. Bo'ylamasiga to'qiladigan trikotaj matolarini to'qish uchun iplar tandalanadi. Trikotaj matosini to'qishda iplar halqa tarzida ishlatiladi. Xar bir xalqa quyidagi qismlardan tuzilgan



2 - rasm. Xalqaning tuzilishi Trikotajning

fizik-mexanik xususiyatlari ishlatiladigan

tolalarning tolaviy tarkibiga, zichligiga va oʻrilish turlariga bogʻliq.

Trikotaj matolarining afzalligi ularning mayinligi, ishqalanishga chidamliligi va yuqori qayishqoqligidadir. Trikotaj matolaridan tikilgan kiyimni kiyib yurish qulay boʻlib, odam badaniga noqulaylik yaratmaydi (3 - rasm). Ularning burmadorligi, gʻijimlanmasligi, issiqni saqlash qobiliyati va gigiyenik xususiyatlari juda yaxshi. Shuningdek, trikotaj

matolarining choʻziluvchanligi va chetlari buralgani sababli ularni bichish va tikish jarayonlari qiyin, trikotaj halqalari tikish mashinalarining ignalari bilan shikastlanib bir-biridan chiqishi mumkin. Trikotaj matolar yuvilganda va hatto kimyoviy tozalashda boʻylamasiga kirishadi, eniga esa kengayadi. Shu Tufayli trikotajdan tikilgan buyumlar oʻz shaklini tez yoʻqotadi [5]



3 - rasm. Tanlangan matolardan naʼmunalar

Ichki kiyimlarni tikish uchun boʻylamasiga va koʻndalangiga toʻqilgan matolar ishlatiladi. Mayka, ishtonlar, sport kiyimlari uchun bu matolar paxta tolali ipdan glad oʻrilishida ishlab chiqariladi. Yuqori sifatli sport buyumlari uchun katta qayishqoqlikka ega lastik oʻrilishdagi matolar qoʻllaniladi. Bu buyumlar lavsan tolali hajmdor iplardan tayyorlanadi. Issiq saqlovchi ichki kiyimlar uchun paxta tolali iplar, nitron va viskoza aralashmasidan olingan iplardan toʻqilgan, sirtiga tuk chiqarilgan matolar ishlatiladi. Ayollar ichki kiyimlarini tikish uchun kimyoviy kompleks iplardan triko - sukno, triko - sharme, toʻrsimon triko - sukno oʻrilishdagi toʻqilgan trikotaj matolar qoʻllaniladi. Bu matolardan tikilgan buyumlar oʻz shaklini

ancha yaxshi saqlaydi. Bolalar ichki kiyimlarini tayyorlash uchun paxta tolali iplardan tukli oʻrilgan matolardan foydalaniladi.

Ichki kiyimlarni tikish uchun moʻljallangan trikotaj matolar oqartirilgan, sidirgʻa rangli, gul bosilgan holda pardozlanadi.

Ustki kiyimlarni tikish uchun ham koʻndalangiga va boʻylamasiga toʻqilgan trikotaj matolar ishlatiladi. Ayollar koʻylak, kostum, bluzkalarini tikish uchun momiqday mayin junsimon jakkard oʻrilishdagi chipor toʻqilgan matolar, sirtida chiqarilgan tuk boʻlgan va tukli oʻrilishdagi baxmalsimon matolar, hajmdor kapron ipidan olingan shoyisimon matolar, toʻrsimon matolar qoʻllaniladi. Nisbatan ogʻir matolardan qishki kiyimlar — jaket,

kostumlar, sport kiyimlarini tayyorlashda foydalaniladi. Bu matolarning o'rilishlari turlicha jakkard, triko - triko, atlas - triko - sukno, to'rsimon va boshqacha bo'lishi mumkin. Bu buyumlar uchun matolar hajmdor iplardan to'qiladi. Ba'zan zarsimon iplar qo'shiladi. Ko'ylak va kostumlar bir

qavatli va ikki qavatli matolardan tayyorlanadi. Palto va kurtkalarga mo'ljallangan sof va yarim jun matolar porolon bilan biriktiriladi[7]. So'rovnoma natijalaridam trkatoj matosiga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi.

O'smir yoshdagi sport kiyimi matosi qanday bo'lishini hohlaysiz



So'rovnoma natijalari gistogramada ko'rsatilgan.



2-rasm. So'rovnomadan so'ng ishlangan eskiz.

Xulosa

Menga tadqiqot ishimda "O'smir yoshdagi qizlar sport kiyimi to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish" mavzusi bo'yicha tadqiqot ishimda zamonaviy moda yo'nalishi va bozor talabiga javob beradigan 3 ta model tanlandi. Tanlangan model iste'molchi talablariga qanchalik mos kelishi o'rganib chiqildi.

Bundan tashqari ijodiy manbaa tahlil qilinib

kolleksiya yaratildi.

O'zbekiston sharoitini o'rganib chiqilgan holda, komplekt uchun material tanlandi va material xususiyatlari o'rganib chiqildi. "SNISHIP" uslubi bo'yicha konstruksiya qurish usuli tanlandi. Ishchi hujjatlar tuzilib yangi model andozalari tayyorlandi, andozalar modellashtirilgan holda chok haqqilari berildi.

Bitiruv malaka ishida ayollar sport kiyimini



texnologik jarayoni loyihalandi. Modelni tikish uchun buyum material hususiyatlarini hisobga olindi. Trikotaj

matosi xususiyatlari va to'qilishi chuqur o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz " Toshkent: "O'zbekiston" 2017 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 fevraldagi PF - 4947 sonli Farmoni. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi".
3. N.S. Gaipova, M.A. G'afurova, Q.M. Abdullayeva. "Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash, badiiy bezash".
4. Marketing. A.Soliyev, S, Buzrukhonov
5. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova, F.L.Abdullina, Q.I.Abdulniyozov. "Gazlamashunoslik"
6. X . X. Komilova, U.A. Vohidova "Loyihalash"
7. B.B.Abbasova, B.B. Ahmedova, B.M.Ahkamova, Sh. M.Ochilov "Yengil sanoat mahsulotlari materilshunosligi"
8. Kamalova S.R, Babaxanova X.A, Komilova S.D.O'zTTITI Toshkent filiali direktori, k.f.n"Rangshunoslik injiniringi" fani bo'yicha leksiyalar kursi